Tina Wiegand va Martin Wynn Germaniya to‘qimachilik sanoatida barqarorlik, aylanma iqtisodiyot va raqamlashtirish jarayonlarini o‘rganib, barqarorlik tamoyillari korxonalar strategik boshqaruviga keng integratsiyalashganini aniqlagan. Tadqiqot raqamli texnologiyalar resurs samaradorligi, ta’minot zanjiri shaffofligi va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[5].

Murat Ozan Başkol Turkiya to‘qimachilik sanoatining xalqaro raqobatbardoshligini Balassa RCA va Vollrath ko‘rsatkichlari asosida baholab, sektor jahon bozorida raqobat ustunligiga ega ekanligini aniqlagan. Shu bilan birga, tayyor kiyim-kechak segmentida raqobatbardoshlikning pasayishi yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar va ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatgan[6].

Ana Julia Dal Forno va hammualliflar Braziliyaning Santa-Katarina hududidagi 16 ta to‘qimachilik korxonasida S&OP tizimini baholab, uning aksariyat korxonalarda to‘liq shakllanmaganini aniqlagan. Tadqiqot S&OPni rivojlantirish kommunikatsiya, rejalashtirish va korxona samaradorligini yaxshilash imkonini berishini ko‘rsatgan[7].

AQShda texnologiya va ta’minot zanjiri, Germaniyada raqamlashtirish va resurs samaradorligi, Turkiyada eksport va yuqori qo‘shilgan qiymat, Braziliyada ishlab chiqarish va sotuvni muvofiqlashtirish, O‘zbekistonda esa ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, ular qiyosiy-ekonometrik tahlil uchun ilmiy asos yaratadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda AQSh, Germaniya, Turkiya, Braziliya va O‘zbekistonning 2016-2025-yillardagi ochiq statistik ma’lumotlari asosida qiyosiy va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. To‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, asosiy kapital shakllanishi, texnologik rivojlanish, savdo ochiqligi va energiya intensivligining ta’siri mamlakatlar kesimida regressiya modellari orqali baholandi. Olingan natijalar asosida xorijiy tajribaning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari aniqlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning ushbu qismida AQSh, Germaniya, Turkiya, Braziliya va O‘zbekiston bo‘yicha 2016-2025-yillar ma’lumotlari asosida to‘qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar ekonometrik jihatdan baholanadi. Olingan natijalar mamlakatlar kesimida qiyoslanib, har bir rivojlanish modeliga xos ustuvor ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Birinchi navbatda AQSh tajribasi regression tahlil regression tahlil uchun tanlab olingan ko‘rsatkichlar quyidagi 1-jadvalda berilgan (1-jadval).

1-jadval
AQSh to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar dinamikasi (2016-2025-yillar)[8]

| Yil | Y - To'qimachilik va kiyim-kechak sanoati qo'shilgan qiymati, mlrd $ | $X_1$ - Asosiy kapital (yalpi) | $X_2$ - To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (yalpi) |
|---|---|---|---|
| 2016 | 26.317 | 20.680 | 2.523 |
| 2017 | 26.491 | 20.989 | 1.942 |
| 2018 | 26.827 | 21.296 | 1.039 |
| 2019 | 28.331 | 21.331 | 1.467 |
| 2020 | 26.377 | 21.580 | 0.641 |
| 2021 | 27.827 | 21.293 | 2.015 |
| 2022 | 27.980 | 21.331 | 1.600 |
| 2023 | 27.626 | 21.451 | 1.309 |
| 2024 | 28.969 | 21.570 | 1.018 |
| 2025 | 29.417 | 21.689 | 1.300 |

2016-2025-yillarda AQSh to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati qo'shilgan qiymati 26,317 mlrd AQSh dollaridan 29,417 mlrd dollargacha oshgan bo'lib, umumiy ijobiy tendensiya kuzatiladi. Shu davrda asosiy kapital nisbatan barqaror saqlangan, TXI esa yillar bo'yicha sezilarli tebrangan bo'lib, mazkur omillarning sanoat iqtisodiy salohiyatiga ta'sirini regressiya asosida baholash imkonini beradi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, Y bilan X1 o'rtasida o'rtacha kuchli ijobiy bog'liqlik (r=0,6462), Y bilan X2 o'rtasida esa kuchsiz salbiy bog'liqlik (r=-0,2350) mavjud, shu bilan birga X1 va X2 o'rtasidagi yuqori manfiy korrelyatsiya (r=-0,8338) multikollinearlik ehtimolini ko'rsatadi.

Quyida berilgan 1-rasmda regression tahlil natijalarini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).

```
. reg Y x1 x2

      Source |       SS           df       MS      Number of obs   =        10
-------------+----------------------------------   F(2, 7)         =      9.03
       Model |  7.83516627         2  3.91758313   Prob > F        =    0.0115
    Residual |  3.03805333         7  .434007619   R-squared       =    0.7206
-------------+----------------------------------   Adj R-squared   =    0.6408
       Total |  10.8732196         9  1.20813551   Root MSE        =    .65879

------------------------------------------------------------------------------
           Y | Coefficient  Std. err.      t    P>|t|     [95% conf. interval]
-------------+----------------------------------------------------------------
          x1 |   5.433739    1.33087     4.08   0.005     2.286733    8.580746
          x2 |   1.973722   .7163782     2.76   0.028     .2797564    3.667687
       _cons |  -91.16832   29.26939    -3.11   0.017    -160.3794    -21.9572
```

**1-rasm. AQSh to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar regression tahlil natijasi[9]**

Regression tahlili natijalariga ko'ra, model umumiy jihatdan statistik ahamiyatli bo'lib, F=9,03 va Prob>F=0,0115 ni tashkil etgan. Modelning $R^2$=0,7206 bo'lishi Y dagi o'zgarishlarning qariyb 72,1 foizi X1 va X2 omillari orqali izohlanishini ko'rsatadi. X1 koeffitsienti 5,4337 (p=0,005) bo'lib, X1 ning 1 birlikka oshishi boshqa shartlar o'zgarmaganda Y ni o'rtacha 5,43 birlikka oshiradi. X2 koeffitsienti 1,9737 (p=0,028) bo'lib, uning ta'siri ham ijobiy va 5 foizlik darajada statistik ahamiyatlidir. Umuman, har ikkala omil Y ga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, bunda X1 ning ta'siri nisbatan kuchliroq ekanligi kuzatiladi.

Keyingi navbatda Germaniya tajribasini o'rgangan holda regression tahlil amalga oshiramiz. Tahlil uchun tanlab olingan omillar 2-jadvalda berilgan (2-jadval).

2-jadval
Germaniya to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar dinamikasi (2016-2025-yillar)[10]

| Yil | Y - To‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati qo‘shilgan qiymati, mlrd $ | $X_1$ - Texnologik rivojlanish, % | $X_2$ - Asosiy kapital (yalpi) |
|---|---|---|---|
| 2016 | 8.923 | 60.907 | 20.044 |
| 2017 | 9.372 | 60.868 | 20.134 |
| 2018 | 9.188 | 59.863 | 20.818 |
| 2019 | 8.666 | 60.383 | 21.152 |
| 2020 | 8.344 | 60.042 | 21.343 |
| 2021 | 9.485 | 57.328 | 21.182 |
| 2022 | 8.964 | 57.921 | 21.601 |
| 2023 | 9.396 | 57.026 | 21.231 |
| 2024 | 9.824 | 56.332 | 20.860 |
| 2025 | 10.271 | 55.638 | 20.489 |

2016-2025-yillarda Germaniya to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati qo‘shilgan qiymati 8,923 mlrd AQSh dollaridan 10,271 mlrd dollargacha oshgan, biroq bu davr davomida ayrim tebranishlar kuzatilgan. Shu bilan birga, texnologik rivojlanish ko‘rsatkichi pasayish tendensiyasini ko‘rsatgan, asosiy kapital esa nisbatan barqaror bo‘lib, ularning tarmoq iqtisodiy salohiyatiga ta’sirini regressiya tahlili orqali baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, Y bilan X1 o‘rtasida kuchli manfiy bog‘liqlik (r = -0,7532), Y bilan X2 o‘rtasida esa kuchsiz-o‘rtacha manfiy bog‘liqlik (r = -0,3384) mavjud. X1 va X2 o‘rtasidagi bog‘liqlik ham past (r = -0,2968) bo‘lib, kuchli multikollinearlik kuzatilmaydi.

Regression tahlil natijalarini 2-rasmda ko‘rishimiz mumkin (2-rasm).

```
. reg y x1 x2

      Source |       SS           df       MS      Number of obs   =        10
-------------+----------------------------------   F(2, 7)         =     37.01
       Model |  2.57394481         2  1.28697241   Prob > F        =    0.0002
    Residual |  .243409288         7  .034772755   R-squared       =    0.9136
-------------+----------------------------------   Adj R-squared   =    0.8889
       Total |   2.8173541         9  .313039344   Root MSE        =    .18647

------------------------------------------------------------------------------
           y | Coefficient  Std. err.      t    P>|t|     [95% conf. interval]
-------------+----------------------------------------------------------------
          x1 |  -.2626588   .0326439    -8.05   0.000    -.3398494   -.1854682
          x2 |  -.6629435   .1251443    -5.30   0.001    -.9588626   -.3670243
       _cons |   38.48903   3.669831    10.49   0.000     29.81126    47.16681
------------------------------------------------------------------------------
```

**2-rasm. Germaniya to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar regression tahlil natijasi[11]**

Regression natijalari modelning umumiy jihatdan yuqori statistik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi: F=37,01 va Prob>F=0,0002. Modelning $R^2$=0,9136 bo‘lishi Y dagi o‘zgarishlarning qariyb 91,4 foizi X1 va X2 omillari bilan izohlanishini anglatadi. X1 koeffitsienti -0,2627 (p=0,000) bo‘lib, X1 ning 1 birlikka oshishi Y ni o‘rtacha 0,263 birlikka kamaytiradi, X2 koeffitsienti -0,6629 (p=0,001) bo‘lib, uning ta’siri ham manfiy va statistik jihatdan ahamiyatlidir. Ta’sir kuchi bo‘yicha X2 ning mutlaq ta’siri X1 ga nisbatan yuqoriroq, shu sababli Y dinamikasini tushuntirishda X2 muhimroq omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Keyingi navbatda Turkiya tajribasini tahlil qilamiz. Turkiya tahlil jarayoni uchun tanlab olingan asosiy ko‘rsatkichlar 3-jadvalda keltirib o‘tilgan (3-jadval).

3-jadval
Turkiya to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar dinamikasi (2016-2025-yillar)[12]

| Yil | Y - To'qimachilik va kiyim-kechak sanoati qo'shilgan qiymati, mlrd $ | $X_1$ - Energiya intensivligi | $X_2$ - Texnologik rivojlanish, % |
|---|---|---|---|
| 2016 | 24.763 | 2.700 | 29.943 |
| 2017 | 24.944 | 2.690 | 30.821 |
| 2018 | 24.324 | 2.570 | 33.662 |
| 2019 | 24.094 | 2.590 | 35.834 |
| 2020 | 22.470 | 2.550 | 36.739 |
| 2021 | 28.326 | 2.480 | 34.339 |
| 2022 | 29.224 | 2.270 | 33.822 |
| 2023 | 28.595 | 2.279 | 34.527 |
| 2024 | 29.222 | 2.208 | 34.409 |
| 2025 | 29.326 | 2.137 | 34.292 |

2016-2025-yillarda to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati qo'shilgan qiymati 24,763 mlrd AQSh dollaridan 29,326 mlrd dollargacha oshgan. Shu davrda energiya intensivligining 2,700 dan 2,137 gacha pasayishi va texnologik rivojlanishning umumiy o'sishi tarmoq samaradorligi va iqtisodiy salohiyatining yaxshilanganini ko'rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, Y bilan X1 o'rtasida kuchli manfiy bog'liqlik (r=-0,8455) mavjud, Y bilan X2 o'rtasidagi bog'liqlik esa deyarli kuzatilmaydi (r=0,0103). X1 va X2 o'rtasidagi korrelyatsiya -0,4011 bo'lib, kuchli multikollinearlik mavjud emas.

Regression tahlil natijalari 3-rasmda berilgan (3-rasm).

```
. reg y x1 x2

      Source |       SS           df       MS      Number of obs   =        10
-------------+----------------------------------   F(2, 7)         =     18.90
       Model |  52.9297905         2  26.4648953   Prob > F        =    0.0015
    Residual |  9.80396906         7  1.40056701   R-squared       =    0.8437
-------------+----------------------------------   Adj R-squared   =    0.7991
       Total |  62.7337596         9  6.97041773   Root MSE        =    1.1835

------------------------------------------------------------------------------
           y | Coefficient  Std. err.      t    P>|t|     [95% conf. interval]
-------------+----------------------------------------------------------------
          x1 |  -12.83065   2.087265    -6.15   0.000    -17.76624   -7.895049
          x2 |   -.503768   .2096821    -2.40   0.047    -.9995874   -.0079486
       _cons |   74.97743   10.27889     7.29   0.000     50.67172    99.28313
------------------------------------------------------------------------------
```

**3-rasm. Turkiya to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar regression tahlil natijasi[13]**

Regression tahlili natijalariga ko'ra, model umumiy jihatdan statistik ahamiyatli bo'lib, F=18,90 va Prob>F=0,0015 ni tashkil etgan. Modelning $R^2$=0,8437 bo'lishi Y dagi o'zgarishlarning qariyb 84,4 foizi X1 va X2 omillari bilan izohlanishini ko'rsatadi. X1 koeffitsienti -12,8307 (p=0,000) bo'lib, X1 ning 1 birlikka oshishi Y ni o'rtacha 12,83 birlikka kamaytiradi. X2 koeffitsienti -0,5038 (p=0,047) bo'lib, uning ta'siri ham manfiy va 5 foizlik darajada statistik ahamiyatlidir. Umuman, har ikkala omil Y ga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, bunda X1 ning ta'siri ancha kuchliroq ekanligi kuzatiladi. Keyingi navbatda Brazilyani tahlil qilamiz. Tahlil uchun tanlab olingan ko'rsatkichlar 4 jadvalda keltirib o'tilgan (4-jadval).

4-jadval
Brazilya to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar dinamikasi (2016-2025-yillar)[14]

| Yil | Y - To‘qimachilik va kiyim-kechak sanoa- $ ti qo‘shilgan qiymati, mlrd | $X_1$ - Texnologik rivo- % ,jlanish | $X_2$ - To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy (investitsiyalar (yalpi |
|---|---|---|---|
| 2016 | 12.385 | 32.778 | 4.137 |
| 2017 | 15.067 | 34.933 | 3.338 |
| 2018 | 12.495 | 34.263 | 4.079 |
| 2019 | 11.280 | 34.488 | 3.693 |
| 2020 | 7.277 | 30.403 | 2.593 |
| 2021 | 8.873 | 31.338 | 2.780 |
| 2022 | 10.756 | 31.338 | 3.868 |
| 2023 | 9.093 | 29.666 | 3.564 |
| 2024 | 7.915 | 28.766 | 3.261 |
| 2025 | 6.663 | 27.867 | 3.400 |

2016-2025-yillarda Braziliya to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati qo‘shilgan qiymati 12,385 mlrd AQSh dollaridan 6,663 mlrd dollargacha kamaygan. Shu davrda texnologik rivojlanish ko‘rsatkichining 32,778 foizdan 27,867 foizgacha pasayishi tarmoq iqtisodiy salohiyatining zaiflashishiga mos tendensiyani ko‘rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, Y bilan X1 o‘rtasida juda kuchli ijobiy bog‘liqlik (r = 0,8976), Y bilan X2 o‘rtasida esa o‘rtacha ijobiy bog‘liqlik (r = 0,5512) mavjud. X1 va X2 o‘rtasidagi korrelyatsiya 0,3877 bo‘lib, kuchli multikollinearlik kuzatilmaydi. Regression tahlil natijalari 4-rasmda ko‘rishimiz mumkin (4-rasm).

```
. reg y x1 x2

      Source |       SS           df       MS      Number of obs   =        10
-------------+----------------------------------   F(2, 7)         =     20.51
       Model |  55.0675778         2  27.5337889   Prob > F        =    0.0012
    Residual |  9.39495663         7  1.34213666   R-squared       =    0.8543
-------------+----------------------------------   Adj R-squared   =    0.8126
       Total |  64.4625344         9  7.16250382   Root MSE        =    1.1585

------------------------------------------------------------------------------
           y | Coefficient  Std. err.      t    P>|t|     [95% conf. interval]
-------------+----------------------------------------------------------------
          x1 |   .8697572   .1691533     5.14   0.001     .4697733    1.269741
          x2 |   1.254152    .820897     1.53   0.170    -.6869607    3.195265
       _cons |  -21.64355   4.999312    -4.33   0.003    -33.46504   -9.822056
------------------------------------------------------------------------------
```

**4-rasm. Brazilya to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar regression tahlil natijasi[15]**

Regression tahlili natijalariga ko‘ra, model umumiy jihatdan statistik ahamiyatli bo‘lib, F=20,51 va Prob>F=0,0012 ni tashkil etgan. $R^2$=0,8543 bo‘lishi Y dagi o‘zgarishlarning qariyb 85,4 foizi X1 va X2 omillari orqali izohlanishini ko‘rsatadi. X1 koeffitsienti 0,8698 (p=0,001) bo‘lib, Y ga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi. X2 koeffitsienti 1,2542 ammo p=0,170 bo‘lgani sababli uning ta’siri 5 foizlik darajada statistik ahamiyatli emas. Umuman, modelning asosiy izohlovchi omili X1 hisoblanadi.

Keyingi navbatda O‘zbekiston bo‘yicha tahlil jarayoni amalga oshiramiz. Tahlil uchun tanlab olingan ko‘rsatkichlar quyida berilgan 5-jadvalda keltirib o‘tilgan (5-jadval).

5-jadval

O‘zbekiston to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar dinamikasi (2016-2025-yillar)[16]

| Yil | Y - To‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati $ qo‘shilgan qiymati, mlrd | % ,$X_1$ – Texnologik rivojlanish | $X_2$ – Savdo % ,ochiqligi |
|---|---|---|---|
| 2016 | 2.488 | 16.160 | 25.693 |
| 2017 | 0.354 | 19.636 | 41.044 |
| 2018 | 1.642 | 23.080 | 61.395 |
| 2019 | 1.774 | 20.450 | 62.300 |
| 2020 | 1.907 | 18.017 | 53.107 |
| 2021 | 2.361 | 17.513 | 54.748 |
| 2022 | 2.639 | 17.634 | 60.048 |
| 2023 | 2.877 | 15.190 | 60.389 |
| 2024 | 3.222 | 13.807 | 60.730 |
| 2025 | 3.620 | 12.424 | 57.000 |

2016-2025-yillarda O‘zbekiston to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati qo‘shilgan qiymati 2,488 mlrd AQSh dollaridan 3,620 mlrd dollargacha oshib, umumiy ijobiy tendensiyani namoyon etgan. Shu bilan birga, texnologik rivojlanish ko‘rsatkichi pasaygan biroq, savdo ochiqligi sezilarli oshgani tarmoqning tashqi bozorlarga integratsiyalashuvi kuchayganini ko‘rsatadi. Mazkur holat iqtisodiy salohiyat o‘sishida eksport va bozor omillarining roli ortib borayotganini anglatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, Y bilan X1 o‘rtasida kuchli manfiy bog‘liqlik (r=-0,8004), Y bilan X2 o‘rtasida esa kuchsiz ijobiy bog‘liqlik (r=0,2767) mavjud. X1 va X2 o‘rtasidagi bog‘liqlik juda past (r=0,0633) bo‘lib, multikollinearlik muammosi kuzatilmaydi.

Regression tahlil natijalarini quyida berilgan 5-rasmda ko‘rishimiz mumkin (5-rasm).

```
. reg y x1 x2

      Source |       SS           df       MS      Number of obs   =        10
-------------+----------------------------------   F(2, 7)         =     10.40
       Model |  5.78319922         2  2.89159961   Prob > F        =    0.0080
    Residual |  1.94585918         7  .277979883   R-squared       =    0.7482
-------------+----------------------------------   Adj R-squared   =    0.6763
       Total |   7.7290584         9  .858784267   Root MSE        =    .52724

------------------------------------------------------------------------------
           y | Coefficient  Std. err.      t    P>|t|     [95% conf. interval]
-------------+----------------------------------------------------------------
          x1 |  -.2391946    .055349    -4.32   0.003    -.3700742   -.1083151
          x2 |   .0261103   .0150972     1.73   0.127    -.0095889    .0618096
       _cons |    5.04756   1.229477     4.11   0.005      2.14031     7.95481
```

**4-rasm. O’zbekiston to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar regression tahlil natijasi[17]**

Regression model umumiy jihatdan statistik ahamiyatli hisoblanadi. F(2,7)=10,40 va Prob > F = 0,0080 bo‘lib, bu modelning 1 foizlik ahamiyatlilik darajasida ham ishonchli ekanligini ko‘rsatadi. $R^2$=0,7482 natijasi to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati qo‘shilgan qiymatidagi o‘zgarishlarning 74,82 foizi X1 va X2 omillari orqali izohlanishini, qolgan 25,18 foizi esa modelga kiritilmagan boshqa omillar hissasiga to‘g‘ri kelishini anglatadi.

Barcha regression tahlil natijalari uchun diagnostik testlarni amalga oshiramiz. Ushbu diagnostik test natijalarini 6-jadvalda ko‘rishimiz mumkin (66-jadval).

6-jadval
To'qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyati bo'yicha regressiya modellarining diagnostik test natijalari[18]

| Mamlakat | Mean VIF | Breusch-Pagan p-qiymat | Ramsey RESET p-qiymat | Cameron-Trivedi IM-test, umumiy p |
|---|---|---|---|---|
| AQSh | 3,28 | 0,6721 | 0,9371 | 0,1289 |
| Germaniya | 1,10 | 0,3215 | 0,7632 | 0,1980 |
| Turkiya | 1,19 | 0,5384 | 0,3169 | 0,5757 |
| Braziliya | 1,18 | 0,0377 | 0,9117 | 0,0586 |
| O'zbekiston | 1,00 | 0,0291 | 0,5890 | 0,0447 |

Diagnostik test natijalari AQSh, Germaniya va Turkiya modellarida multikollinearlik, geteroskedastiklik hamda model spetsifikatsiyasi bilan bog'liq jiddiy muammolar mavjud emasligini ko'rsatadi. Braziliya va O'zbekiston modellarida Breusch-Pagan testi bo'yicha geteroskedastiklik alomatlari kuzatilgan ammo VIF va Ramsey RESET natijalari modelning umumiy tuzilishi barqaror ekanligini tasdiqlaydi.

2016-2025-yillar bo'yicha amalga oshirilgan qiyosiy-ekonometrik tahlil to'qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatini shakllantiruvchi determinantlar mamlakatlarning sanoat rivojlanish modeli va tarkibiy xususiyatlariga qarab sezilarli farqlanishini ko'rsatdi. AQSh modelida asosiy kapital va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ijobiy va statistik ahamiyatli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, Germaniya hamda Turkiyada texnologik va resurs-samaradorlik omillarining ta'siri ustunligi kuzatildi. Braziliyada esa texnologik rivojlanish asosiy izohlovchi omil sifatida namoyon bo'ldi. O'zbekiston modeli ham statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, $R^2$=0,7482 natijasi tanlangan omillar tarmoq iqtisodiy salohiyatidagi o'zgarishlarning qariyb 75 foizini izohlashini ko'rsatdi, bu esa texnologik rivojlanish va tashqi bozorlar bilan integratsiyaning tarmoq istiqbollari uchun muhimligini tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy tahlil natijalari to'qimachilik sanoati iqtisodiy salohiyatini oshirishda yagona universal model mavjud emasligini, balki AQShda investitsiya va kapital, Germaniyada texnologiya va samaradorlik, Turkiyada energiya tejamkorligi hamda eksport, Braziliyada esa texnologik rivojlanish muhim determinant sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. O'zbekiston modeli ham statistik ahamiyatli bo'lib, tanlangan omillar tarmoq iqtisodiy salohiyatidagi o'zgarishlarning qariyb 75 foizini izohlashi texnologik rivojlanish va tashqi bozorlar bilan integratsiyani ustuvor yo'nalish sifatida belgilashga asos yaratadi. AQSh va Germaniya tajribasi asosida texnologik modernizatsiyani investitsiya samaradorligi bilan bog'lash. To'qimachilik korxonalariga beriladigan investitsion va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni zamonaviy uskunalar, avtomatlashtirish, raqamlashtirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha aniq samaradorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lash maqsadga muvofiq. AQSh modelida kapital va TXI, Germaniyada esa texnologik omillar yuqori izohlovchi ahamiyat kasb etgan.

Turkiya tajribasi asosida energiya samaradorligi va eksport raqobatbardoshligini yagona mexanizmda rivojlantirish. Energiya intensivligini kamaytiruvchi texnologiyalarni joriy etgan va tayyor mahsulot eksportini oshirgan korxonalarga imtiyozli moliyalashtirish hamda eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ustuvor qo'llash lozim. Turkiya tahlilida energiya intensivligining pasayishi iqtisodiy salohiyat bilan kuchli statistik bog'liqlikni namoyon etgan.

Braziliya va Turkiya tajribasini uyg'unlashtirib, chuqur qayta ishlash va tashqi bozor integratsiyasiga asoslangan qiymat zanjirini kuchaytirish. O'zbekistonda ip-kalava eksportidan tayyor kiyim-kechak, texnik tekstil va brendlangan mahsulotlar eksportiga o'tishni jadallashtirish, klasterlarda ishlab chiqarish-sotuv-logistika jarayonlarini muvofiqlashtirish zarur. Bu yondashuv O'zbekiston modelida savdo ochiqligi va tarmoq iqtisodiy salohiyati o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni amaliy jihatdan kuchaytirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Başkol, M.O. (2018) 'International competitiveness in Turkish textile and clothing sector', Uluslararası Yönetim İktisat ve İşletme Dergisi, 14(3), pp. 643-658. doi: 10.17130/ijmeb.2018343115.

2. Dal Forno, A.J., Silva, R., Hornburg, S., Kipper, L. and Marangoni, C. (2024) 'Development of a diagnostic tool to measure the implementation level of Sales and Operations Planning (S&OP) in textile companies', Production, 34, e20230084. doi: 10.1590/0103-6513.20230084.

3. Government of Uzbekistan (2025) Results of 2025 in the Textile Industry and Priority Tasks for the Future Are Reviewed. Tashkent: Government of the Republic of Uzbekistan.

4. Lu, S. (2023) ‘Explore U.S. retailers’ sourcing strategies for clothing made from recycled textile materials’, Sustainability, 15(1), Article 38. doi: 10.3390/su15010038.

5. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026) Foreign Trade Turnover in the Republic of Uzbekistan: January–December 2025. Tashkent: National Statistics Committee.

6. Tursunov, B.O. (2019) ‘Methodology for assessment the efficiency of production capacities management at textile enterprises’, Vlákna a Textil, 26(2), pp. 74-81. doi: 10.5281/zenodo.3756262.

7. Wiegand, T. and Wynn, M. (2023) ‘Sustainability, the circular economy and digitalisation in the German textile and clothing industry’, Sustainability, 15(11), Article 9111. doi: 10.3390/su15119111.

8. World Bank (2025) Weaving a New Future in Uzbekistan’s Cotton Sector. Washington, DC: World Bank.

9. World Bank (2026) World Development Indicators. Washington, DC: World Bank. To‘qimachilik sanoati, manufacturing, TXI, asosiy kapital, texnologik rivojlanish va boshqa ekonometrik ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasi.

10. World Trade Organization (WTO) (2024) Global Value Chain (GVC) Sectoral Profile: Textiles and Clothing. Geneva: World Trade Organization.

11. World Trade Organization (WTO) (2025) Trade Monitoring Update: Latest Trends, July 2025. Geneva: World Trade Organization.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 8/1**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz